

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Зумрад Бойхўразовна Раҳмонкулова XXI АСР ТУРКИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	5
2. Gulnara Rashidovna Joldasbaeva QORAQALPOQLARNING AN'ANAVIY SUT MAHSULOTLARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI.....	11
3. Nigora Azadovna Egamberdiyeva XORAZMNING QADIMIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI (KULOLCHILIK TARIXI MISOLIDA).....	17
4. С.И.Габриэльян СРЕДНЕВОСТОЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РУССКО-ГЕРМАНСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА НАКАНУНЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	23
5. Risolat Davron qizi Murodova ILMIY MEROSNI SAQLASHDA ILMIY MUZEYLARNING O'RNI: TAJRIBA VA TAHLIL...35	35
6. Shukrullo Nasriddinov, Dilshod To'xtasinov O'RTA OSIYO DINIY-MONUMENTAL ME'MORCHILIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	42
7. Sherbek Axmedovich Omanov, Shukrullo Nazrullayevich Nasriddinov AXSIKENT YODGORLIGI ASOSIDA O'RTA ASRLAR UY - JOY XO'JALIGI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI.....	48
8. Матлуба Бойхурозовна Раҳманкулова XVI–XVII АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУҚОВАЛАРИДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ҲИРОТ МУҚОВАСОЗЛИК УСЛУБИ АНЪАНАЛАРИ.....	54
9. Abdulla Nuritdinovich Rasulov, Nurillo Abdulboqiyevich Rejabboyev SAMARQAND VILOYATI OCHARCHILIK OQIBATLARINI TUGATISH KOMISSIYASI FAOLIYATI.....	63
10. Рустам Султонмуродович Солиев XX ASRDA TURKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATLAR.....	71
11. Xayrullo Lutfillojon o'g'li Xolmirzayev QO'QON XONLIGIDA 1853-YIDAN KEYINGI SIYOSIY HARAKATLAR VA MALLAXONNING HOKIMIYATGA KELISHI.....	76
12. Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	82



Sherbek Axmedovich Omanov,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Antropologiya instituti katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Shukrullo Nazrullayevich Nasriddinov,
Namangan davlat universiteti
"Arxeologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

AXSIKENT YODGORLIGI ASOSIDA O'RTA ASRLAR UY - JOY XO'JALIGI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI

For citation: Sherbek A. Omanov, Shukrullo N. Nasriddinov. STUDY OF THE MATERIAL CULTURE OF MEDIEVAL HOUSEHOLDS ON THE BASIS OF THE AXSIKENT MONUMENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 7.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807420>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining eng yirik arxeologik yodgorliklaridan biri bo'lgan Axsikent shahri qoldiqlari asosida o'rta asrlar uy-joy xo'jaligi va moddiy madaniyatining o'rganilish tarixi hamda bugungi holati yoritilgan. Tadqiqotda arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan turar-joy me'morchiligi, xonalarning ichki tuzilishi, isitish tizimlari (tashnav, sandallar), xo'jalik o'ralari hamda kulolchilik, shishasozlik, temirchilik buyumlari tahlil qilingan. Shuningdek, topilmalarning Axsikent aholisining kundalik hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari va hunarmandchilik taraqqiyotidagi o'rni manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Axsikent, Farg'ona vodiysi, o'rta asrlar, uy-joy xo'jaligi, moddiy madaniyat, arxeologik topilmalar, me'morchilik, hunarmandchilik.

Шербек Ахмедович Оманов,
старший научный сотрудник Института антропологии,
доктор философии в области исторических наук (PhD)
Шукрулло Назруллаевич Насриддинов,
старший преподаватель кафедры археологии,
Наманганский государственный университет

ИССЛЕДОВАНИЕ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ДОМОХОЗЯЙСТВ НА ОСНОВЕ ПАМЯТНИКА «АКСИКЕНТ»

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается история и современное состояние изучения средневекового жилища и материальной культуры на основе археологических находок города Ахсикент, одного из крупнейших археологических памятников Ферганской долины. В исследовании анализируются жилая архитектура, внутренняя планировка помещений,

системы отопления (ташна́в, санда́лии), предметы домашнего обихода, а также керамика, стекло и изделия кузнечного дела, обнаруженные в результате археологических раскопок. На основе источников и научной литературы также раскрывается роль находок в повседневной жизни населения Ахсикента, социально-экономических отношениях и развитии ремесел.

Ключевые слова: Ахсикент, Ферганская долина, Средневековье, домашнее хозяйство, материальная культура, археологические находки, архитектура, ремесла.

Sherbek A. Omanov,

Senior Researcher of the Institute of Anthropology,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

Shukrullo N. Nasriddinov,

Senior Lecturer of the Department of Archaeology,
Namangan State University

STUDY OF THE MATERIAL CULTURE OF MEDIEVAL HOUSEHOLDS ON THE BASIS OF THE AXSIKENT MONUMENT

ABSTRACT

This article (or thesis) examines the history and current state of research on medieval domestic economy and material culture based on the remains of the Axsikent archaeological site, one of the largest urban centers in the Fergana Valley. The study analyzes residential architecture, room layouts, heating systems (tashnav, sandals), and economic pits discovered during archaeological excavations, as well as pottery, glassware, and blacksmithing products. Furthermore, based on historical sources and scientific literature, the role of these findings in the daily life, socio-economic relations, and handicraft development of the population of Axsikent is highlighted.

Index Terms: Axsikent, Fergana Valley, Middle Ages, domestic economy, material culture, archaeological finds, architecture, handicrafts.

Dolzarbligi:

Arxeologik ma'lumotlarni uy xo'jaligi darajasida tahlil etish amaliyoti turli mintaqalarda faol rivojlanmoqda. Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha arxeologik maktablarida qazilmalar natijasida olingan ma'lumotlarni xonadon yoki mahalla darajasida tahlil qilish ilmiy yondashuvning odatiy amaliyotiga aylangan. AQShning janubiy-sharqiy hududlari arxeologik yodgorliklari misolidagi dastlabki tadqiqotlar ko'rsatishicha, xonadonlardan topilgan ashyolar va inshoot qoldiqlari orqali an'anaviy xo'jalik faoliyatlarini qayta tiklashga asosiy e'tibor qaratilgan. Masalan, uy maishiy xonalaridagi o'choqlar, pishiriq tano'rlari, xom ashyoni qayta ishlash uskunalari va boshqa inventarlar bo'yicha umumiy patternlar ishlab chiqilgan (jumladan, uy xo'jaligi sharoitida sopol yasash, oziq-ovqat zaxiralash usullari va h.k.). Biroq keyinchalik tadqiqotchilar uy xo'jaliklarini tarixiy jarayonning faol sub'ekti sifatida ko'ra boshladilar va tahlilni keng ijtimoiy makonda olib borishga o'tishdi. Xususan, individual uy xo'jaligining o'z mahallasi, qishlog'i va mintaqadagi boshqa xo'jaliklar bilan qanday aloqada bo'lgani, resurslarni taqsimlash va iste'mol qilishdagi o'rni kabi masalalar tadqiqot doirasiga kiritildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Arxeolog A. Anarbayevning ma'lum qilishicha, Axsikentning shahar madaniyatiga oid ilk kompleks ilmiy tadqiqotlari o'tkazilib, uning er. avv III asrdan eramizning XIII asrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyoti rekonstruksiya qilingan (1.). Ushbu tadqiqotlar doirasida shaharning turli qismlarida qazishmalar amalga oshirilib, jumladan turar-joy kvartallari va xonadonlarga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Bu ma'lumotlar mahalliy uy xo'jaliklari tarkibi, arxitekturasi va turmush darajasi haqida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari:

Uy xo'jaligi arxeologiyasi – arxeologiya fanining insonlar hayotining madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy qirralarini o'rganishga yo'naltirilgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda

jarayonli, postprotsessual, tarixiy-protsessual va darvinistik modellarga asoslangan turli nazariy yondashuvlar bilan boyib bormoqda. Mazkur yoʻnalishda tadqiqotning markaziy obʼekti arxeologik yodgorliklar va arxitektura inshootlari emas, balki insonning kundalik turmush tarzi, mehnat faoliyati, isteʼmol modeli, jins va yoshga bogʻliq ijtimoiy munosabatlar, xonadon tarkibi hamda moddiy madaniyat elementlari hisoblanadi. Shu jihatdan, uy xoʻjaligi arxeologiyasi turli nazariy konsepsiyalar va ilmiy tadqiqot usullarini qamrab olgan kompleks fanlararo yoʻnalish sifatida namoyon boʻladi. Ushbu yondashuv uy-joylar, ustaxonalar, omborlar, xoʻjalik oʻralari hamda turar-joy zonalar kabi kichik koʻlamli arxeologik obʼektlar orqali shaxsiy va oilaviy hayotning ichki mexanizmlarini tiklash imkonini beradi. Shuningdek, shaharsozlik va maishiy hayotni tadqiq etishda yangi nazariy qarashlarni shakllantiradi.

Uy xoʻjaligi arxeologiyasi amaliyotidagi muhim yoʻnalishlardan biri — uy-joy qurilishi va xonadonning moddiy muhitini oʻrganish hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar jarayonida topiladigan turar-joy qoldiqlari, uy jihozlari va maishiy chiqindilarni tahlil qilish orqali oʻsha xonadonning ichki tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va jamiyatdagi mavqei haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Shu umumiy tamoyillarning Oʻzbekistonning qadimiy shaharlaridan biri – Axsikentdagi uy xoʻjaliklari arxeologiyasi misolida qanday namoyon boʻlishini tahlil qilamiz.

Asosiy qism:

Oʻrta Osiyoda uy xoʻjaliklari arxeologiyasi mavzusi nafaqat qishloq aholisi, balki shahar madaniyatini oʻrganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi (Frachetti et al., 2024). Axsikent (Eski Axi) – qadimiy Fargʻona vodiysining yirik shaharlaridan biri boʻlib, bu yerda milodiy birinchi mingyillik oxiri – milodiy ikkinchi mingyillik boshlariga (er.av. III-II – XIII asr boshlari) qadar uzluksiz hayot mavjud boʻlgan.

Axsikentning oʻrta asrlarga oid shahar ichkarisida oʻtkazilgan qazuvlarda katta hajmli, koʻp xonali uy qoldigʻi aniqlangan. Arxeologik tahlillar – bu uyning ikki qavatli boʻlganini va devorlarining rasmlar bilan bezatilganini koʻrsatadi. Bunday holat ushbu turar-joyda boy va nufuzli kengaygan oila yashaganidan dalolat beradi (1).

Uyning shimoliy qismida toʻrtta xona saqlanib qolgan boʻlib, ular ikkita ikki xonali boʻlimga ajratilgan. Har bir boʻlimda mustaqil, er-xotinli kichik oila yashagan, deb talqin qilish mumkin. Demak, bu uy kengaygan oila, yaʼni bir-biriga qarindosh uchta nuklear (kichik) oilaning birlashgan xonadoni boʻlgan. Hamma xonalar yashash uchun moʻljallangan boʻlib, markazda sandal – oʻchoq qurilmasi topilgan. Devorlar qoʻlda yasalgan xom gishtlardan terilgan (oʻlchami 38–40×20×7–8 sm), xonalar esa svod, yaʼni qubbasimon tom qoplamlarga ega boʻlgan. Tadqiqotchining fikricha, uyning sharqiy qanotida yopiq hovli va bir nechta bir qavatli xonalar mavjud boʻlgan, biroq ular saqlanmagan (2).

Stratigrafik tahlilga koʻra, mazkur xonadon IX asrning ikkinchi yarmida qurilgan va XI asr oʻrtalarigacha faol foydalanilgan. Bunday uzoq davomli ekspluatatsiya uning mustahkamligi va ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Axsikentdagi ushbu hashamatli uy orqali mahalliy uy xoʻjaliklarining ijtimoiy tuzilmasi haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Bunday holatda ancha nufuzli oila bir hovlida yashagan, bir necha uy-joy inshootlarini egallagan hamda resurs va mulkni birlashtirgan.

Qiziqarlisi shundaki, Axsikent uy-joylaridagi bu koʻp xonadonli arxitektura Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida ham kuzatiladi. Masalan, Janubiy Qozogʻistondagi Turkistan va Taraz shaharlarida ham A. Baypakov tomonidan ikki xonali boʻlimlarga ajratilgan katta uylar qazib oʻrganilgan (4).

Demak, Fargʻona vodiysi aholisi qadimdan avloddan-avlodga qoladigan uy xoʻjaliklari shaklida istiqomat qilgan. Bu shakl ehtimol mintaqaning iqlimiy va madaniy sharoitiga mos ravishda rivojlangan boʻlib, yer va mol-mulkni avlodlar orasida meros qilib qoldirish, mehnatni taqsimlash, katta hajmda mahsulot ishlab chiqarish va muhimrogʻi — ijtimoiy yordam va himoya mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, Axsikentda oddiyroq turar-joylar ham mavjud boʻlgan. Masalan, shaharning II shahristan qismida XI–XII asrlarga oid odatiy rejali (2–3 xonali), bir qavatli uylar topilgan. Bunday

uylarda o'choqlar, yerga ko'milgan katta humdonlar, bdrab va xo'jalik o'ralari va boshqa maishiy inshootlar aniqlangan (2).

Axsikent uy xo'jaliklari orqali quyidagi muhim ilmiy xulosalarni qayd etish mumkin: Ijtimoiy differensiya ya'ni ancha boy uy xo'jaliklari va oddiyroq oilalar o'rtasidagi farq. Oilaviy tarkib ancha kengaygan va nuklear oilalarning uy-joydagi ifodalanishi. Me'moriy usullari ikki qavatli, svodli uylar va bir qavatli, yopiq tomli uylar. Maishiy infratuzilma: turli maqsadli xonalar, o'choq, xumdon, xo'jalik o'ralari, badrab kabi ob'yektlar. Bunday holatlar Farg'ona vodiysidagi shahar sivilizatsiyasini uy xo'jaliklari prizmasi orqali o'rganish va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Axsikent yodgorligining shu paytgacha qadar o'rganilgan yigirmadan ortiq ob'ektidan shaharning barcha davrlariga oid xilma xil me'moriy inshoot qoldiqlari va topilmalar aniqlandiki, ular asosida axsikentliklarning antik va o'rta asrlardagi maishiy hayotini tiklash imkoni bor.

Ana shu tadqiqotlar natijalari asosida arxeolog A. A. Anarbayev 1988-yilda Axsikentning qadim davr va o'rta asrlardagi taraqqiyotiga bag'ishlangan ilmiy tahliliy maqolasini e'lon qildi (2). Mazkur maqolada u shu paytgacha olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, shaharning arxeologiyasi bo'yicha kelgusida hal etilishi lozim masalalarni ham belgilab bergan.

Shaharda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda hunarmandlar mahallalari ularda kulolchilik ustaxonalari va boshqa hunarmandchilik izlari haqida muhim ilmiy ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Bundan tashqari mudofaa inshootlari, masjid va turar joy qoldiqlari ham topilgan. Ular orasida eng sensatsion topilma bu shaharni toza suv bilan ta'minlovchi yer osti suv tizimlari majmuasidir.

Taxminan 90 sm diametrdali bu tonelning ichiga X asrda yog'och va puxta sopol quvurlari yotqizilgan bo'lib, ular orqali Kosonsoy daryosining suvi shaharga oqib kelgan. Tonelning muayyan joylarida har 50–100 metrda maxsus g'ishtli gumbazli "lyuk"lar qurilgan bo'lib, ular orqali suv olish, quvurlarni tozalash va suv oqimini nazorat qilish mumkin bo'lgan. Arxeologlar bu murakkab irrigatsiya inshootini o'z davri uchun noyob deb baholab, u taxminan 300 yil xizmat qilgan deb hisoblashgan.

Oxirgi besh yilda, 2020–2024 yillarda, Axsikentda kompleks arxeologik ekspeditsiya tashkil etildi va hukumat tomonidan O'zbekistondagi birinchi arxeopark sifatida uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi (2). Prof. A. Anarbayev rahbarligidagi jamoa keng ko'lamli qazishmalarni amalga oshirib, shaharning turli qismlarini to'liq o'rganmoqda. Masalan, 2020–2022-yillarda IX–XIII asrlarga oid mudofaa devorining yangi uchastkasi, yer osti suv yo'li, hamda ikkinchi shahristondan yangi turar-joy qoldiqlari ochildi (2).

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Axsikentdagi turar-joylar shaharning eng rivojlangan davri – Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi (XI–XII asrlar) davrida shahar aholisi yuqori zichlikka ega bo'lgan. Qazilmalar davomida topilgan uylar xom gisht (paxsa) va pishgan g'ishtdan ikki qavatli qilingani aniqlandi – bu aholi soni ko'pligi sabab uylarni vertikal, ya'ni ikki qavatli qilib qurganliklarini ko'rsatadi. Har bir qavat bir nechta maxsus xonalar va inshootlarga ega bo'lgan. Jumladan, uylarning ichida oshxona (ovqat tayyorlash xonasi) hamda alohida yuvinishxonasi va tahoratxonalar mavjud bo'lgani tasdiqlandi. Uylarda qishki isitish uchun qulay moslama – sandal (ostida ko'mir qo'yib yoqiladigan past stol yoki xontaxta) qo'yiladigan maxsus xonalar bo'lgan (yoki xonaning o'rtasi shunday qilib jihozlangan). Shuningdek, uylarga yondosh yoki ichida yordamchi xo'jalik xonalari (masalan, ustaxona yoki ombor sifatida) va yerosti saqlash xonalari ham bo'lgan. Qazilmalar orasida ayrim uylarning oziq-ovqat saqlash uchun mo'ljallangan yerto'la omborlari, polga ko'mib qo'yilgan xumlar ham kuzatilgan.

Uy-joylarning ichki devorlari zamonasi uchun ahamiyatli darajada bezak berilgani ham hayratlanarlidir. XI–XII asrlarda Axsikent aholisi o'z uylarini (ehtimol mehmonxona) devoriy suratlar boshqa naqshinkor ganjlar bilan bezashgani aniqlandi. Demak, Axsikentda aniqlangan Qoraxoniylar davri uylari bizga o'rta asr shahar aholisining kundalik hayot tarzi va ma'naviy madaniyati haqida bebaho ma'lumot beradi.

Shaharning umumiy rejasi uch qismdan – Ark (qal'a), shahriston (ichki shahar) va rabod (tashqi shahar)dan iborat bo'lgani arxeologik va yozma manbalarga tayangan holda tasdiqlangan. Qal'a-ark qismi baland tepalikda joylashib, mudofaa devorlar bilan o'ralgan. Axsikentning birinchi shahristoni qo'shimcha devor bila mustahkamlangan va undan tashqaridagi rabod qismi esa

hunarmandlar va oddiy aholi yashagan hudud bo'lgan. Qazilmalar vaqtlari mudofaa devorlarining bir necha davrga oid qatlamlari aniqlangan. Shaharning IX–XII asrlarga oid asosiy mudofaa devor xom g'ishtdan o'ta qalin (1,2 metr balandlikda saqlangan qismi) qilib qurilgani ma'lum bo'ldi. Ustidan XIII asrning birinchi choragida shoshilinch ravishda ana shunga nisbatan noziqroq yangi devor ko'tarilgan – bu ehtimol 1219–1220 yillar Chingizxon hujumi xavfi oldidan qurilgan bo'lishi mumkin.

Shahar infratuzilmasining yana bir ahamiyatli tarkibiy qismi – bu uning yer osti toza suv ta'minoti va sanitariya tizimi bo'lib, yuqorida ta'riflangan yer osti sopol vodoprovod tizimi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, qazilmalar paytida hududdan jamoat hammomining qoldiqlari XI–XIII asrlarga oid bo'lgan.

Axsikentdan maydoni katta masjid majmuasi topilgan. Shaharning sharqiy qismida X–XII asrlarga oid masjid aniqlarilgan bo'lib, uning tarhida rivoqli hovli va o'ymakor ustunlar bilan bezalgan ayvonlar bo'lgani qayd etilgan. Bu arxitektura o'z davrida milliy me'morlik an'analari yuksak namunalaridan biri bo'lgani ta'kidlanadi.

Axsikent arxeologiyasida xonadonlar xo'jaliklari hayotini o'rganishda shahardagi hunarmandchilik va ishlab chiqarish faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Topilmalar shahodat berishicha, shu shaharda mahalliy aholi turmushda ishlatuvchi buyumlarni ko'p jihatdan o'zlari ishlab chiqarishgan yoki shahardagi hunarmand ustalar tomonidan tayyorlangan. Masalan, kulolchilik – shaharda keng rivojlangan soha bo'lgan. Axsikentning hunarmandlar mavzesidan kulollik xumdonlar topilgan (5). Axsikent sirlangan sopol idishlari tarkibi va tayyorlash usulini o'rganish maqsadida olib borilgan mikroskopik va kimyoviy tahlillar mahalliy kulollar o'ziga xos "Axsikat texnologiyasi"ni qo'llaganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, islom davri (IX–XIII asrlar)ga oid sirlangan sopol idishlarning ularning texnologiyasi bo'yicha britaniyalik tadqiqotchi Kristina Xenshou tomonidan alohida dissertatsiyaviy ish bajarilgan (6). Uning tadqiqoti Axsikentning o'rta asrlar davri kulolchiligida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq madaniy aloqalari aks etganini, misol uchun ayrim sirlangan kosalarining naqshi xuddi Xurason yoki Iroqdagi kabi uslubga ega ekanini ko'rsatadi.

Axsikentdan juda ko'p sonda maishiy-moddiy madaniyat ashyolari aholining maishiy tarzi, ularning madaniy-ma'naviy qarashlarini ochib berishiga xizmat qiladi. Axsikent maishiy muhitida aholining badiiy dunyoqarashi va ma'naviyatini aks ettiruvchi noyob sopol idishlar sirasiga sirlangan kosa va tovoqlardagi hadisdan olingan iboralar va qo'lda ishlangan sirtiga dasht uslubida bezak berilgan sopol idishlarni kiritish mumkin (7). Sirtiga xusniyat bitilgan sirlangan sopol idishlar va siyohdonlar orqali biz o'rta asr shahar aholisi o'rtasida yozma savodxonlik qay darajada odatiy bo'lganini tasavvur qilishimiz mumkin.

Axsikentda kulolchilikdan tashqari metallurgiya va boshqa hunarmandchilik ham juda yaxshi rivojlangan edi. Arxeologik topilmalar orasida mis eritish pechlari va bir nechta temirchilik ustaxonalarining qoldiqlari aniqlangan.

Shu tariqa, arxeologik dalillar Axsikent fuqarolari nafaqat turli maishiy buyumlardan foydalangani, balki ularni ishlab chiqarish madaniyati ham shakllanganini ko'rsatadi. Hunarmandlar kvartalidagi topilmalar shaharda kulollar, temirchilar, zargarlar va boshqa ustalar aholi ehtiyojini qoplab turganini bildiradi. Bu esa uy xo'jaliklari arxeologiyasi uchun muhim – har bir uy uchun zarur bo'lgan qozon-tovalar, sopol idishlar va mehnat asboblari shaharning o'zida tayyor bo'lgan.

Sopollardan tashqari, qazilmalardan turli metall ashyolar ham ko'p topilgan. Masalan, tangalarning katta to'plamlari mavjud bo'lib, ular turli davrlarga oid ekani aniqlangan. Somoniylar va Qoraxoniylar davri tangalari Axsikent axolisining savdo-iqtisodiy aloqalari va pul muomalasini o'rganishga yordam beradi. Mis, bronza va temirdan yasalgan maishiy buyumlar – metall idishlar, kapkir, zargarlik buyumlari, pichoq, taqa, qaychi, o'q-yoy o'qi kabilar ham uy arxeologiyasi uchun o'ta qimmatli manba hisoblanadi. Badrab, xo'jalik o'ralaridan aniqlangan urug'lar va toshdan ishlangan qo'l tegirmonlari shahar aholisining kundalik oziq-ovqat ratsionini aniqlashda qo'l keladi.

Topilmalar orasida uchraydigan maxsus topilmalardan sopol o'yinchoqlar va suyakdan ishlangan oshiq donachalari maishiy turmush tarzini tiklashda juda qo'l keladi. Aholining bo'sh vaqt va o'yinlar bilan bog'liq faoliyati ham arxeologik materiallar orqali yoritiladi. Oshiq o'yini

Markaziy Osiyoda qadimdan keng tarqalgan bo'lib, ko'chmanchilarda ham, shahar aholisida ham bolalardan tortib kattalargacha mashg'ul bo'lgan ommaviy o'yin edi (8). Axsikentda turli joylardan topilgan oshiqlar shaharda ushbu o'yin nihoyatda mashhur bo'lganini ko'rsatadi.

Axsikent shahridagi uy xo'jaliklari arxeologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida shahar aholisining kundalik hayoti, turar-joylari, maishiy infratuzilmasi va madaniyati haqida ko'p muhim ma'lumotlar olish mumkin.

Xulosa:

Axsikent yodgorligida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda uy xo'jaligi arxeologiyasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, milodiy X–XIII asrlarga oid turar-joylar, xonadon tarkibi, xonalarning funksiyalari, ishlab chiqarish maydonlari hamda moddiy madaniyat qoldiqlarini ushbu metodologiya asosida qayta tahlil etish zarur. Bunday yondashuv orqali aholining kundalik turmush tarzi, mehnat taqsimoti, makondan foydalanish usullari va ijtimoiy maqomning moddiy ifodalari tahlil etilishi mumkin. Axsikentda topilgan maishiy moddiy madaniyat ashyolari – idish-tovoqlar, qurol-aslahalar, ustaxona uskunlari va boshqa xo'jalik jihozlari – mahalliy aholining uy xo'jaligi modeli hamda hunarmandchilik–bozor tizimi haqida muhim ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы– Ташкент: Tafakkur, 2013. – С. 7–9.
2. Anarbayev A. Axsikent arxeologiya parki. I jild. Axsikat va Farg'onaning Buyuk ipak yo'lidagi shaharlari. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 355.
3. Анарбаев А. А., Илясова С. Р. Раскопки ремесленного квартала на городище Эски-Ахси // ИМКУ. – Вып. 27. – Самарканд, 1996. – С. 166–176.
4. Байпаков К. М. Средневековая городская культура Южного Казахстана и Семиречья (VI – начало XIII вв.). – Алматы: Наука, 1986.
5. Frchetti M.D., Berner J., Liu X. et al. Large-scale medieval urbanism traced by UAV-lidar in highland Central Asia // Nature. – 2024. – Т. 634. – С. 1118–1124. DOI: <https://doi.org/10.1038/s41586-024-08086-5>.
6. Henshaw C. M. Early Islamic ceramics and glazes of Akhsiket, Uzbekistan: PhD Thesis. – London: Institute of Archaeology, University College London, 2010.
7. Оманов Ш. А. Лепная расписная керамика Ахсикета в период Караханидов: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: Фан, 2024.
8. Omanov Sh. A. O'rta asrlar qo'lda yasalgan bezakli sopollar yasash texnikasi xususida ayrim mulohazalar // SamDU ilmiy axborotnomasi. – Samarqand, 2023. – Т. 4 (2). – С. 157–161. DOI: <https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v4.140.2.2367>.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000